



КАЗАНСКИЙ НАЦИОНАЛЬНЫЙ
ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ АБАЙ



«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI, MADANIYATI»

MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY KONFERENSIYA

TOSHKENT - 2025

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,
MADANIYATI»**

**MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

TOSHKENT - 2025



Mazkur ilmiy maqolalar to'plamida «Turkiy xalqlarning ma'naviy integratsiyasi: tili, adabiyoti, madaniyati» II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Maqolalarda turkiy tillarning rivoji va o'zaro o'xshashliklarini, umumiy adabiy merosimizni ilmiy asosda chuqur o'rganish; madaniy aloqalarni zamonaviy texnologiyalar orqali kengaytirish; tarjima va adabiy almashinuv orqali xalqaro miqyosda muloqotni kuchaytirish; raqamli platformalar orqali integratsiyani amalga oshirishga oid fikrlar yoritib berilgan. To'plamdan dunyo bo'yicha taniqli turkiyshunos olimlar, metodistlar, o'qituvchilar hamda ToshDO'TAU iqtidorli talabalarining maqolalari ham o'rin olgan.

To'plam til va adabiyot ta'limi bilan shug'ullanuvchi professor-o'qituvchilar, shu sohaning tadqiqotchilari, magistrant va talabalarga mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

G.Asilova – *pedagogika fanlari doktori (DSc), professor.*

G.Norimova – *filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

Tahrir hay'ati:

S.Muhamedova, S.Qambarova, O.Turaqulova,
Y.Shirnova, M.Yo'ldosheva.

Mazkur to'plam matni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2025-yil 2-iyundagi 10-sonli majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.

Izoh: Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar o'zlari mas'uldirlar.



Fikrlarni xulosalasak, tushunish - o'rganishning asosiy va bosh me'zoni. Uning turli ko'rinishlari mavjud: o'qib tushunish, tinglab tushunish, ko'rib tushunish va h.k. O'qitish jarayonida o'quvchi o'rganayotganlarini anglamas ekan, uni jahonning eng zo'r olimi o'qitsa ham natija berishi qiyin. Bola o'rganganlariga tushunar ekan, hatto maktabga bormasdan ota-onasidan ham o'rgana oladi. Usuli savtiya idrok etgan, tushungan holda o'rgatish usuli bo'lganligi sababli necha asrlar o'tsa ham hali hanuz qo'llanilmoqda. Zero, tushunish - insonga mustaqil fikrlash, ma'lumotlarni analiz qilish va shu bilan birgalikda barcha foydali va kerakli narsalarni o'rganish uchun zamin yaratadi. Oldingi davrda ham, hozirgi davrda ham qo'llaniladigan usullar, metodlar tushunishga asoslanishi lozim. Shundagina o'quvchilarda mustaqil va tanqidiy fikrlash ko'nikmalari rivojlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. S. Ayniy. Eski maktab. – Toshkent: Yoshlar matbuoti, 2023. – 240 b.
2. Dolimov U. Milliy uyg'onish pedagogikasi. –Toshkent: NOSHIR, 2012. – 384 B.
3. Pedagogika tarixi: Darslik. Q2/K. Hashimov, S. Nishonova. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2005. – 304 b.
4. Pedagogika tarixi. O'quv qo'llanma / Qambarov M. –Toshkent: Bayoz, 2022. – 288 b.
5. Ibragimov X. Abdullayeva Sh. Pedagogika nazariyasi. Darslik. -Toshkent, 2008. –288 b.

“ARBAIN” VA “NAZM UL-JAVOHIR” DAGI TIL OFATIGA: HIKMATLAR VA HADISLAR HAQIDA

Qurbonboyeva Mohidil Isroil qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent o'zbek tili va adabiyoti

universiteti 1-kurs magistri

Jahongirmohidil1329@gmail.com

Annotatsiya: Til insonga Alloh tomonidan berilgan ne'mat bo'lib, u aslida kichik hodisa bo'lsada, lekin uning ibodati va isyoni juda kattadir, biz tevarak-atrofdan nimani idrok qilsak, til barchasini o'zida mujassam qiladi, ularning bor-yo'qligi haqida xabar beradi, ilmga oid barcha narsani til oshkor qiladi.

Mazkur maqolada mutafakkir Alisher Navoiyning “Nazm ul-javohir” va “Arbain” asarlari o'rganilgan. Tahlil uchun til ofatlari mavzusi tanlab olingan. Ushbu maqolada asarlar qiyosiy tipologik metod orqali tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: pandnoma asarlar, til sukuti, til zarbasi, hikmat, hadis, Ali ibn Abutolib, G'azzoliy, Hasan Basriy o'g'itlari.

Аннотация: Язык — великое благо, дарованное человеку Аллахом. Хотя это может показаться незначительным явлением, как поклонение, так и неповиновение, совершаемое посредством него, имеют огромное значение. Люди воспринимают окружающие их события и сообщают о них посредством языка. Знание, наука, размышление и духовность проявляются посредством языка. В данной статье анализируются произведения великого философа Алишера Навои, в частности «Назм уль-Джавохир» и «Арбаин», с акцентом на тему языковых недостатков. Анализ проводится с использованием сравнительно-типологического метода.



Ключевые слова: поэтические произведения, молчание языка, языковой ход, мудрость, хадисы, учения Али ибн Абу Талиба, Газали, Хасана Басри.

Annotation: Language is a great blessing granted to humans by Allah. Although it may seem like a small phenomenon, both the worship and disobedience performed through it carry immense significance. Humans perceive the events around them and communicate about them through language. Knowledge, science, reflection, and spirituality all manifest through language. This article analyzes the works of the great philosopher Alisher Navoi, specifically "Nazm ul-Javohir" and "Arbain," with a focus on the theme of language faults. The analysis is conducted using a comparative-typological method.

Key words: poetry, silence of language, linguistic move, wisdom, hadith, teachings of Ali ibn Abu Talib, Ghazali, Hasan Basri.

Hazrat Alisher Navoiy bobomiz qoldirgan ilmiy meroslari bizlar uchun axloqiy-diniy tarbiya vositasi bo'lib, hayot yo'llarimizda yo'lchi-shamchiroq vazifasini o'taydi. Shunday bebaho asarlaridan qirq hadisning nazmiy sharhiga bag'ishlangan "Arbain" va pandnoma yo'nalishidagi hazrat Ali ibn Abutolibning hikmatlarini ruboiy shaklida qilingan she'riy tarjimalarni o'z ichiga olgan "Nazm ul-javohir" asarlaridir. Ushbu asarlarda mavzu ko'lami asosan, oltindanda qimmat odob-axloq masalalariga oiddir. Bu maqolada ikki asarda biz til ofatiga oid hikmat va hadislarni o'rganib chiqamiz. "Arbain" asarida 40 hadisdan 4 ta hadis, "Nazm ul-javohir" asarida esa 259 ruboiydan 16 ta ruboiy inson tili va nutqidan to'g'ri foydalanishga bag'ishlangan. Ular mazmunan yaqin, lekin ketma-ket tartibda berilmagan. Zero, ushbu mavzu insoniyat nutq qobiliyatini amalga oshirar ekan, xoh u o'g'zaki xoh yozma bo'lsin o'z dolzarbligini yo'qotmaydi. Anas ibn Molik r. a. rivoyat qiladi: "Rosululloh sollalohu alayhi vassalam bunday rivoyat qildilar: "Qulning qalbi to'g'ri bo'lmaguncha iymoni to'g'ri bo'lmaydi. Qalbi esa uning tili to'g'ri bo'lmaguncha iymoni to'g'ri bo'lmaydi. Qo'shnisi o'zidan amin bo'lmagan kishi esa also jannatga kirmaydi"¹⁵.

Yana bunday buyurdilar: "Kim salomatlikda(omonlikda) bo'lishni istasa, sukut saqlashdan ayrilmasin"¹⁶.

"Nazm ul-javohir"ning kirish qismida ham hazrat Navoiy tilimiz mevasi ya'ni so'zga go'zal ta'riflar beradi: "so'z bog'i ajib gulistonedurkim, anda jonbaxsh atirlik ashjori mavzun va ruhparvar royixalik ko'pdurur va lekin foydasiz xas-u hoshoki, balki zararlik holi xaloki ham bordur"¹⁷.

Bu yerda Navoiy so'z bog'ini ajib gulistonga o'xshatyapti, u shunday ajib gulistonki, ruhimizga ozuqa bo'ladi lekin so'zning foydasiz hashaki ham borki, so'zning zararli holati ham bor. Hazrat Navoiy so'zdan foydalanishimiz o'rniga qarab u gulzorning nafis gullari yoki quruq hashak vazifasini o'tashini go'zal tushuntirib berganlar.

Qay zamonda... qay makonda.. qay davrada... bo'lishimizdan qat'iy nazar kerakli o'rinda til sukuti insonni salomat qiladi deb o'ylaymiz. Jim turish diqqatni jamlaydi va insonni xato qilishdan asraydi. Bu borada "Nazm ul-

¹⁵ Муснат, 1/198

¹⁶ Табароний "ал-Авсат", 1955.

¹⁷ Nazm ul- javohir asari 4-b.



javohir" asarida 113-ruboiyda "Til sukuti-inson salomatligi" degan hikmatlari asos qilib olingan:

Til ildomidin bo'lur g'aromat hosil'
Yuz nav nadomatu malomat hosil'
Oz so'zlaganidin istiqomat hosil,
Sokidligidin vale salomat hosil.¹⁸

Yuqorida keltirilgan ruboiyda aytilishicha, tining ildomi-tezlashishi, to'xtamay so'zlashi so'zlovchiga g'aromat ya'ni ziyon bo'ladi, bo'lganda ham yuz turli nadomat, afsuslanish va malomat o'zga insonlarning til egasiga nisbatan noroziliklarni olib kelishi mumkin, bu esa so'zlovchi insonning yaqinlari, do'stlari va boshqa tanish insonlari oldida hurmatini tushuradi. Oz so'zlagan insonlar :m el orasida hurmat-izzatda bo'ladilar, vujudlari sokin, sakinatda va albatta, salomat bo'ladilar. Mavzuimiz ushbu asarning 137-ruboiysida ham mantiqiy davom etadi "Til zarbasi-tish og'rig'idan kuchlidir" degan o'git asos qilinib olinib:

Chun sinsa ko'ngil zahmi zabon og'rig'idin-
Kim, ermasaning og'rig'i jon og'rig'idin,
Har neki senga yetar lison og'rig'idin,
Bilginki, qattiqdurur sinon og'rig'idin.

Agar tildan aytiluvchi achchiq so'z ko'ngilimizni sindirsa, go'yoki uning og'rig'i jon og'rig'idanda kuchli bo'ladi, jon og'rig'ini davolash mumkinu, til og'rigi istaymizmi, yoqmi yillar davomida biz bilan bilinmas hamroh bo'ladi, xatto, davolanmasligi esdan chiqmasligi mumkin, bu aytiluvchi so'z sirni oshkor qilish, tortishish, xusumat, la'natlamoq, ortiqcha ha'zil, mazahlamoq, yolg'on vada berish, g'iybat, chaqimchilik, maddohlik qilmoq va boshqalar bo'lishi mumkin va bular hammasi vujudimizga jon og'rig'idan qattiqroq ta'sir o'tkazishi mumkin.

Quyida "Nazm ul- javohir" asarida keltirilgan 174-ruboiyda "Tan sihatligi-sukutdan" o'giti asos qilib olinib, so'z ishlatish mahoratini hazrat Navoiy juda go'zal badiyat bilan tasvirlagan:

Daxr ichra sukut jomidin madhush o'l,
Lab birla so'zing yuziga barqapo'sh o'l,
Demonki, so'z ayturg'a balog'at qush o'l,
Nafsingg'a saloh istar esang xomush o'l.¹⁹

Hazrat aytmoqchiki, bu daxr ya'ni dunyo ichida sukut jomini ichib, sukutdan madhush-ko'proq sukutda bo'lishni tanlagin, so'z aytishda ehtiyotkorlik lozim va so'zing barqapo'sh- yashirin bo'lsin, nafis so'zni tanlagin, tinglovchi suhbatdoshinga aytadigan so'zing ozor bermasin, 3- misrada: balog'at- ko'rkamlik, qush esa balandlik timsoli. Oddiy gaplar emas, aksincha ruhiyatni oziqlantiruvchi so'zlar aytilsin, oxirgi misrada esa saloh- poklik ma'nosida ishlatilgan ya'ni nafsingga poklik istamoqchi bo'lsang sukut saqla,

¹⁸ Nazm ul- javohir asari -b.

¹⁹ Nazm ul- javohir asari 31-bet.



umuman olganda bu ruboiyda tanimiz sihatligiga tilimizdan chiquvchi soʻz muhim ahamiyat kasb etishi aytilgan.

Shu oʻrinda 46- hikmat “Soʻzning yahshisi qisqadir” oʻgiti quyidagi ruboiyda goʻzal ifodalanadi:

Har kisaki soʻz demak shiorida turur,
Maʼni guli nutqning bahorida durur,
Soʻz kim desun ulki ixtiyorida durur,
Soʻz yahshiligi chu ixtisorida durur.²⁰

Bu keltirilgan ruboiy yuqoridagi ruboiyimiz oʻzaro bir-birining davomi goʻyo, sababi yuqoridagi 127-hikmatda ham soʻz tanlashda balogʻat qushdek, hozirgi 46-ruboiyda soʻz aytilganda bahor gulidek goʻzal nutq qilish haqida, farqli tomini esa 46-hikmatga yozilgan ruboiyda :m soʻz bizning ixtiyorimizda boʻlishi va yahshi

soʻz tanlashda maʼsuliyatli boʻlishimiz tushuntirilgan.

“Nazm ul-javohir” 21-hikmat “Kishining muloyimligi(ehsondan soʻng) ikkinchi sovgʻadir” deyilgan oʻgitga yozilgan ruboiy kishida iliq hissiyot uygʻotadi:

Ehsonki birovga siyrati son keldi,
Ashkoli spehr oldida oson keldi,
Ehson har necha zebi inson keldi,
Ehsonda tarab ikkinchi ehson keldi.²¹

Ushbu ruboiyda soʻzni muloyim qilish qanchalik savobli amal ekanligi goʻzal tarzda ochib berilgan: ehson insonlar fazilatini bezaydigan yahshi amal ekanligi, ehson nafaqat yerda balki ilohiy maqom ekanligi, ehson har qanday zeb yaʼni boylikdan ustunligi, endi biz agar soʻzimizni muloyim ishlata olsak shunday yahshi darajalarda chiqa olishimiz mumkin.

“Arbain” asari 35- hadisda shunday deyilgan:

Abu Hurayra r. a.dan rivoyat qilinadi: “Nabiy sollallohi alayhi vasallam: Shirin soʻz ham sadaqadir dedilar”

Muttafaqun alayh.
Yahshi soʻz birla hojat ahlin soʻr,
Bermasang yahshi toʻmadin nafaqa.
Ne uchunkim Rasul qavli bila
Yahshi soʻz bordur oʻylakim sadaqa.²²

Hadisda aytilmoqdaki: agar yahshi taom bilan muhtoj kishi holini soʻray olmasak, yahshi soʻz bilan holini soʻrashimiz, yahshi soʻzdan ham sadaqa savobi olinishi aytilmoqda.

²⁰ Nazm ul- javohir asari 18-bet.

²¹ Nazm ul- javohir asari 13-14-betlar.

²² **Муаллиф:** Алишер Навоий

Таржима ва изох муаллифлари: Ҳасанхон Яҳё Абдулмажид, Ҳусайнхон Яҳё Абдулмажид

Номи: Навоийдан чу топқайлар навое. 107.



Xuddi shu tilga ehtiyotkorlik fazilati haqida “Arbain” asari 21-hadisda quyidagicha keltiriladi:

Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: “Rosululloh sollallohu alayhi vasallam: “Kishiga har bir eshitgan narsasini gapirish gunoh o'laroq yetarlidir”, dedilar”

Abu Dovut va Ibn Xibbon rivoyat qilgan.

Bu buzuvchi bas kishigakim, eldin

Har neki so'z kim eshitti, fosh etti.

Tog' eshitganni der, gunohidin

Go'yiyo Tengri oni tosh etti.

Odamlardan eshitgan gapini yoyadigan insonga shuning o'zi yetarli gunohdir, tog' eshitganini aytadi ya'ni u har bir ovozni aks sado qilib qaytaradi, go'yo Alloh uni shu sababli tosh qilib qo'ygandek.²³ Tafakkur qilib ko'rsak, insonni tabiatdagi jonli narsalardan uning ongi ajratib turadi. Biz ongli mavjudot sifatida ishtayotgan so'zlarimizga imkon qadar sayqallab eng go'zalini kerakli o'rinda ishlatishimiz lozim.

“Arbain” asari 38-hadisda shunday yoziladi: Anas ibn Molik roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

Rosululloh sollallohu alayhi vasallam: “Balo nutqqa topshirib qo'yilgandir”, dedilar”

Dedi: “Ko'p so'zlagan xat'o ko'p etar”

Ulki derlar ani valiyulloh.

Har balokim yetar-erur so'z din,

Bo'yla hukm ayladi Nabiyulloh.²⁴

Hadisda aytilyaptiki, ko'p so'zlaganning xatosi ham ko'p bo'ladi, Donishmand xalqimiz “Oz so'zla-xop sozla” naqlini bejizga aytmaganlar. Hadisda ham kam so'zlab, kerakli so'zni so'zlash haqida aytilmoqda. Hasan Basriy aytadi: “Ko'p gapirganning yolg'oni ham ko'payadi, moli ko'pning gunohi ko'payadi, ahloqi buzuvchi nafs azoblanadi²⁵

Imom Abu Homid G'azzoliy bobomizning “Til ofatlari va undan saqlanish yo'llari” kitobida keltirilishicha: Ibrohim Taymiy bunday degan: “Mo'min gapirmoqchi bo'lganda o'ylaydi, foydasi bo'lsa gapiradi, aksi bo'lsa sukut qiladi.” Bunday ko'rinadiki, behuda so'zlash borasida :mo hushyor bo'lmog'imiz lozim, ehtiyojimizga yetadigan darajada so'zlashimiz kifoya ekanligi hadislarda ham ta'kidlangan.

²³ **Муаллиф:** Алишер Навоий

Таржима ва изоҳ муаллифлари: Ҳасанхон Яҳё Абдулмажид, Ҳусайнхон Яҳё Абдулмажид
китоб Номи: Навоийдан чу топқайлар навое. 93.

²⁴ **Муаллиф:** Алишер Навоий

Таржима ва изоҳ муаллифлари: Ҳасанхон Яҳё Абдулмажид, Ҳусайнхон Яҳё Абдулмажид

Номи: Навоийдан чу топқайлар навое.110.

²⁵Ибн Абу Дуне “ас-Самт ва адабул лисан,90.



Xulosa qilib aytish mumkimki, kishining so'zi uning yaxshiligi yoki yomonligiga guvoh. Aytilgan so'zni qaytarib bo'lmas deganlaridek, bu til deb atalmish yaratiqdan o'z o'rnida go'zal tarzda foydalanish zarur. Zero, kishining so'zlagan so'zlari ko'pgina vaziyatlarda shu inson odobiga ishora bo'ladi. Shunday ekan, har birimiz hozirgi internet asrida xoh u ijtimoiy tarmoqlar bo'lsin, xoh jonli nutqimizda e'tiborli bo'lganimiz yahshi fazilat hisoblanadi, biz orqali farzandlarimiz "sezilmas kuzatuvchi"dek biz kattalardan o'rnak oladilar va ko'pgina hollarda shunday namuna bo'ladilar. Birgina shirin so'zimiz qancha asrlardan o'tib avlodlarimizga yetib boradi, garchi tilizdan yahshi bo'lmagan so'z chiqsa ham...bizdan keyingi avlodga go'zal so'zlarimizni meros qoldiraylik, keraksiz so'zlarni o'rgatib qo'ymaylik. "Arbain" asari 30-hadisda aytilganidek: Kishi musulmonchiligining go'zalliklaridan biri-behuda narsalarni tark etishidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Навоийдан чу топқайлар навое. Таржима ва изох муаллифлари: Ҳасанхон Яҳё Абдулмажид, Ҳусайнхон Яҳё Абдулмажид. 2023.
2. Муснат, 1/198.
3. Табароний "ал-Авсат". 1955.
4. Абу Ҳомид Ғаззолий. Тил офатлари. Нашриёт: «ШАРҚ» нашриёти. 2017.
5. Shuhrat Sirojiddinov, Dilnavoz Yusupova, Olimlon Davlatov. "Navoiyshunoslik". "Tamaddun" nashriyoti. 2018.
6. Nurboy Jabborov "Maoniy ahlining sohibquroni". Toshkent. "Adabiyot" nashriyoti. 2021.
7. Po'latova Malohat. Avtoreferat. Toshkent. 2020.
8. Aziz Qayumov. Istiqlol davri o'zbek adabiyotshunosligi, 30 jildlik to'plam. Toshkent. 2021.
9. Abduqodir Hayitmetov. Istiqlol davri o'zbek adabiyotshunosligi, 30 jildlik to'plam. Toshkent. 2021.
10. "Nurboy Jabbor saboqlari" telegram kanali.

O'ZBEKISTONDA "MAJOLIS"NING O'RGANILISHI

Yusupova Gulchaman Baxtiyor qizi

ToshDO'TAU O'zbek tili va adabiyot yo'nalishi 1-kurs magistranti
gulchamngulcamn@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada "O'zbek tili va adabiyoti" jurnalida tazkiralar tadqiqi haqida so'z boradi. Tadqiqotni olib borgan olimlar hamda ularning tadqiqot ishlari tartib bo'yicha jurnalga kirgan maqolalar o'rganiladi. Jurnalning tashkil etilganidan to bugungi kunga qadar mumtoz adabiyotimiz tarixida yozilgan Alisher Navoiy ijodining nodir durdonasi bo'lgan "Majolis un-nafois" tazkirasining maqolalardagi xronologiyasini tuzishga harakat qilingan. O'rganilgan tazkiralardagi olimlarning samarali mehnatlari e'tirof etiladi. Tadqiq etilgan tazkiralarning o'zbek mumtoz adabiyotidagi o'rni borasida so'z boradi.

Kalit so'zlar: tazkira, tadqiqot, yodnoma, mumtoz, tabdil, tarjima.

Аннотация. В этой статье рассказывается об исследовании Тазкира в журнале «Узбекский язык и литература». Ученые, проводившие исследование, изучаются по порядку. С момента основания журнала и до сегодняшнего дня предпринимались



DÜŞÜNCELER	
Rahmonova Shahlo Rashidovna. O'ZBEK MUMTOZ ADABIYOTIDA FAOL AYOL TASVIRI	135
Abdullayeva N.M. TURKIY XALQLAR ADABIYOTI VA XALQ OG'ZAKI IJODI MASALALARI	144
Заки Арсланович Алибаев. СОВРЕМЕННАЯ БАШКИРСКАЯ ПОЭЗИЯ В КОНТЕКСТЕ ВОСТОЧНОЙ ЛИТЕРАТУРЫ	150
Акжолова Таңнұра Нурбековна. КАРЫЛАРГА БОЛГОН МАМИЛЕНИН ЖОМОКТОРДО КАМТЫЛЫШЫ	158
Begmatova Dildora Abdunematovna. MAHMUD QOSHG'ARIYNING "DEVONU LUG'ATI-T- TURK" ASARIDAGI AYRIM MAQOLLAR TASNIFI	163
Erkinova Madinaxon Umid qizi. XALQ DOSTONLARIDA ALISHER NAVOIY VA HUSAYN BOYQARO DO'STLIGI TALQINI	171
Mansurova Yulduz Faxriddinovna. MUZAFFAR MIRZO IJODIDA TARIXIY OBRAZLAR TALQINI	175
Nizomjonova Durdona Nizomjonovna. TUSHUNISH - O'RGANISHNING BOSH MEZONI (S. AYNIYNING "ESKI MAKTAB" QISSASI ASOSIDA)	179
Qurbonboyeva Mohidil Isroil qizi. "ARBAIN" VA "NAZM UL-JAVOHIR" DAGI TIL OFATIGA: HIKMATLAR VA HADISLAR HAQIDA	184
Yusupova Gulchaman Baxtiyor qizi. O'ZBEKISTONDA "MAJOLIS"NING O'RGANILISHI	189
Avezova Maktuba To'rayevna. YASSAVIY VA UBAYDIY HIKMATLARIDA ILOHIY ISHQ TAJALLISI	193
Мухаббат Масадикова Гайбуллаевна, Қойшыбай Арайлым. TÜRK HALK HİKAYELERİNDE ANLATI YAPISI	198
Ishonxanova Iroda Abduvaxitovna, Almanova Sumbula Usmanovna. ALISHER NAVOIY SHAXSINING JAMIYATDAGI NUFUZI	205
II SHU'BA. HOZIRGI TURKIY TILSHUNOSLIKNING DOLZARB MUAMMOLARI	
Ravshanxo'ja Rasulov. TERMIN – TERMINOLOGIK BIRLIK	213
Mirzaqulov Tursunali O'tayevich. TURKIY TILLAR MORFEMALARI BIRIKUVIDAGI AYRIM CHEKLOVCHI OMILLAR HAQIDA	218
Е.М. Молдасанов, Абдувалитов Н.Б. АНА ТІЛІНІҢ СӨЗ СЫРЫ	222
Axmedova Shaxnozaxon Farxod qizi. TERMIN, ATAMA, SO'ZNING FARQLI VA O'XSHASH XUSUSIYATLARI	227
Esayeva Dilafruz Azamatovna. ONA TILI IMKONIYATLARINI KO'RSATUVCHI TIL BIRLIKLARI	233
Sharipova Xumora Zayniddinovna. OLMOSHLARNING KONTEKSTDA QO'LLANISHI	236
Umarova Diafruz Razzakberdiyevna. O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA ONOMASTIK BIRLIKLAR TADQIQOTI VA BOSHQA TURKIY TILLAR BILAN TAQQOSI	239

